

## **SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA SHAXS VA RUHIYAT TALQINI**

**Alixonova Yulduz**

**Termiz davlat universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida shaxs va ruhiyat talqini badiiy-estetik hamda psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Adib ijodida inson ichki dunyosining nozik qatlamlari, qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va hayotiy qarorlaridagi psixologik omillar badiiy detallar orqali yoritib berilishi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, yozuvchi nasrida psixologizmning o'ziga xos xususiyatlari, xarakter yaratishda ichki monolog, portret, muhit va detalning o'rni ochib beriladi. Tadqiqot davomida Xolmirzayev qahramonlarining individual ruhiyati, ularning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi hamda shaxs sifatida shakllanish jarayonlari ilmiy asosda talqin qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Shukur Xolmirzayev, psixologizm, shaxs, ruhiyat, badiiy obraz, ichki kechinma, xarakter, ichki monolog, badiiy detal, psixologik tahlil, o'zbek nasri, badiiy tafakkur.

## **INTERPRETATION OF PERSONALITY AND SPIRITUALITY IN THE WORKS OF SHUKUR KHOLMIRZAYEV**

**Alikhonova Yulduz**

**Student of Termez State University**

**Annotation:** This article analyzes the interpretation of personality and spirituality in the works of Shukur Kholmirzayev from an artistic, aesthetic and psychological perspective. It is shown that in the writer's work, the subtle layers of the human inner world, the spiritual experiences of the heroes, internal conflicts and psychological factors in life decisions are highlighted through artistic details. Also, the specific features of psychologism in the writer's prose, the role of internal monologue, portrait, environment and detail in creating a character are revealed. During the research, the individual psyche of Kholmirzayev's heroes, their interaction with the social environment and the processes of their formation as individuals are interpreted on a scientific basis.

**Keywords:** Shukur Kholmirzayev, psychologism, personality, spirituality, artistic image, internal experience, character, internal monologue, artistic detail, psychological analysis, Uzbek prose, artistic thinking.

## **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛИЧНОСТИ И ДУХОВНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА**

**Алихонова Юлдуз**

**Студентка Термезского государственного университета**

**Аннотация:** В данной статье анализируется интерпретация личности и духовности в произведениях Шукура Холмирзаева с художественно-эстетической и психологической точек зрения. Показано, что в творчестве писателя тонкие слои внутреннего мира человека, духовные переживания героев, внутренние конфликты и психологические факторы в жизненных решениях подчеркиваются через художественные детали. Также раскрываются специфические особенности психологизма в прозе писателя, роль внутреннего монолога, портрета, окружения и деталей в создании образа. В ходе исследования на научной основе интерпретируются индивидуальная психика героев Холмирзаева, их взаимодействие с социальной средой и процессы их формирования как личностей.

**Ключевые слова:** Шукур Холмирзаев, психологизм, личность, духовность, художественный образ, внутренний опыт, характер, внутренний монолог, художественная деталь, психологический анализ, узбекская проза, художественное мышление.

XX asrning 60-yillaridan o'zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo'shgan va XXI asrda ham barakali ijod etib kelayotgan yozuvchilar avlodi ichida Shukur Xolmirzayev alohida ajralib turadi Shukur Xolmirzayev 1940-yilning 24-martida Surxondaryoning Boysunida tug'ilgan. Ijodi maktabda o'qib yurgan paytlarida boshlangan. Ilk hikoyalari tuman gazetasida bosilgan. Adib Toshkent davlat universitetini bitirgach «Yosh gvardiya» nashriyotida muharrir, «Guliston», «Sharq yulduzi» jurnallarida bo'lim mudiri, ma'lum muddat Muqimiy nomidagi teatrda adabiy emakdosh bo'lib faoliyat ko'rsatgan. So'ng butun umrini badiiy ijodga bag'ishlagan adibning asosiy tarjimai holi: orzulari, dardlari, armonlari; amalga oshirgan, amalga oshirolmagan ishlari; nafratlari-yu sevinch iztiroblari, o'zidan, do'stlaridan, idealidan o'tgan sifatlar uning asarlari bag'rida yotadi.

Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi ayni paytda ijodiy jarayonning o'ziga xosligini belgilaydi. Ijodiy jarayon har bir yozuvchida o'ziga xos tarzda kechadi. Shunday ijodkorlar borki, ifoda yo'sinining betakrorligi, badiiy tasvir uslubining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunoslik, xususan, uning tarkibiga kiruvchi adabiy tanqid o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotida ikki ijodkor – Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayevning xizmatlarini alohida ta'kidlab ko'rsatib keladi. Aslida mazkur yozuvchilar nafaqat hikoya, shuningdek, qissa, roman, drama janrlarida ham samarali ijod qilishgan. Shunga qaramay, bu qalam sohiblari aynan kichik epik janr deb hisoblanadigan badiiy shakl rivojining o'zbek adabiyotidagi o'rnini va mavqeini yuksaltirish bo'yicha e'tiborga molik ishlarni amalga oshirganlar.

Shukur Xolmirzayev asarlari hayotda, inson qalbida yechilmay yotgan muamolarning badiiy tahliliga qaratilgan. Yozuvchi qahramonlari asar g'oyasini, badiiy topilmalarni kitobxon og'ziga chaynab solmaydi. Noshud, hayotda to'g'ri yo'l topolmagan, beo'xshov yoki razil qahramonlarini asar nihoyasiga borib tugatmaydi, yaxshilamaydi. Ularni o'zining badiiy niyati amalga oshirilgan darajada hayotdagiday qoldirib, kitobxon hukmiga havola etadi. Bu uslub asar va qahramon haqida mushohada yuritish uchun o'quvchiga keng imkoniyat qoldiradi. Adib asarlari qahramonlari aksari uning o'zi tug'ilib o'sgan tuproq Surxon diyorining mehnatkashlaridir. Asar voqealari sodir bo'ladigan manzil ham ko'pincha shu voha bo'ladi. Shu voha qahramonlari timsoli misolida adib o'zbek xalqining, o'zbek tuprog'ining o'ziga xosliklarini tajassum etadi. Yozuvchi asar qahramonlarini oqlamaydi ham, qoralamaydi ham. Asosiy e'tiborni ularning qalbi, ma'naviyati, do'stlarga, yangi hayotga, o'zgarishlarga munosabatini ko'rsatishga qaratadi va hukm chiqarishni o'ziga qoldiradi. Adib asarlarining g'oyalari bir-birini to'ldirib boradi, tasvirlangan qahramonlar harakatidan, tabiatidan chiqarilgan xulosalar bir-birini yanada boyitadi, milliy o'zligimizning turli qirralarini alohida xarakterlar orqali tasvirlab, xalq qiyofasidagi yaxlit qiyofaning turli jihatlarini ochib beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
2. Xolmirzayev Sh. Saylanma (Ikki jildlik). – Toshkent, “Sharq”, 2005.
- 2.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, “Akademnashr”, 2007.
- 3.Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent, “O'zbekiston”, 2004.
- 4.Rasulov T. Shukur Xolmirzayev mahorati. – Toshkent, “Adabiyot va san'at”, 2010.